

BINO INSHOOTLAR UCHUN YANGI TURDAGI QURILISH MATERIALLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Yunusova Zuxraxon Taxirovna

“Qurilish muhandisligi” kafedrasi katta o`qituvchisi

Ahmadjonov Mansurbek Yunusali o`g`li

I kurs 64-24 guruh “Materialshunoslik” yo`nalishi talabasi

Andijon davlat texnika instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi bunyodkorlik ishlari avj olgan bir davrda yangi turdagi qurilish materiallari, ularni ishlab chiqarish, foydalanish, ularning afzallik tomonlari, narx navolari, tashqi davlatlar bilan hamkorliklar haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** qurilish materiallari, yangilanish, bunyodkorlik, zilzilabardosh, innovatsion, mustahkamlik, deformatsiya, gips, loysimon komponent, kompozit armatura, konstruksiya, penoblok, gazoblok, mozoika, bo`yoq.

Kirish. Bugun O`zbekiston har sohada gullab yashnamoqda. Har bir sohada rivojlanish, yangilanish, yuksalish jadal suratlar bilan o`sib bormoqda. O`zbekistonni rivojlanishi va gullab yashnashi bunyodkorlik ishlari bilan bog`liqdir. Bunyodkorlik ishlari O`zbekistonni har bir viloyatida rivojlanmoqda. Bino inshootlarning qurilishi – bu asosan aholi soni bilan bog`liqdir. Hozirda davlatimizda aholi soni 38 millionga yetdi. O`zbek xalqi bolajon halq. Har bir xonadonda o`sib ulg`ayotgan yigitlar albatta bir xonadonni egasi bo`lishadi. Aholi sonining ko`pligi, zichligi, aholi ehtiyojiga asosan Andijon viloyatida ham bunyodkorlik ishlari jadal suratlar bilan amalga oshirilmoqda. Aholiga topshiriladigan xonadonlar talabga javob beradigan, davlat standartida qurilishi kerak. Davlat standartidan kelib chiqib qurilgan binolar mustahkam, zilzilaga bardoshli, kam deformatsiyalanadigan, yaroqlilik muddati ham talabga javob beradigan bo`lishi kerak. Bunyodkorlik ishlari qiymatining 55-60 foizini qurilish materiallari tashkil qiladi. Zamonaviy yangi, sifatli, arzon, zilzilabardosh, innovatsion materiallarni tanlash katta ahamiyatga egadir. Bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlanishi qurilish materiallari sanoatini ham rivojlanishini taqozo qilmoqda. Respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida 2019 yil 20 fevralda O'zbekiston Prezidentining “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda 2019 yil 23 mayda “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish

uchun “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tashkil etildi. 2019-2025 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasi xomashyo bazasi hajmlarini oshirish — 13,1 million tonna ohaktosh, 1,8 million tonna gips, 1 million tonna loysimon komponent, g'isht xomashyosi, 0,1 million tonna kvarts qumi, 5,6 million kub metr ko'chgan tog' jinslari (bazal't), toshshag'al ishlab chiqarish rejalashtirilgan. yog'och qirindili plitalar hamda yog'och va boshqa yog'ochbop materiallardan tayyorlangan plitalarni 15 barobar, gazobeton bloklarni 7 barobar, lok-bo'yoq materiallari hamda energiya va issiqlikni tejovchi float-texnologiya asosida ishlab chiqarilgan arxitektura-qurilish oynasini 4 barobar, bazaltdan tayyorlanadigan kompozit armaturani 3 barobar va tsement ishlab chiqarishni 2 barobar oshirish ko'zda tutilgan. Bizda nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki xorijiy davlatlarga ham eksport qilishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Rossiya, Ukraina, Turkiya, Ozarbayjon kabi davlatlarga pol qoplamalari, yengil metal konstruksiyalar, basalt rovinglar, polisterol plitalar, ya'ni penopleks kabi mahsulotlar eksport qilindi. Qurilish oynasi ishlab chiqarishda energiya sarfini ikki baravar qisqartirishga erishildi. O'tgan davr, ya'ni 2019-2020 yillarda qurilish materiallari sanoati sohasidagi tub islohotlar natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yangi turdagi innovasion, eksportbop va import o'rnini bosuvchi qurilish materiallari — gulgog'oz, suyuq gulgog'oz, zoloblok, gazoblok, penoblok, polistrolblok, kompozit (asbestsiz) shifer, o'tga chidamli g'isht, yumshoq tom yopqich materiallari, izolyatsiyalash materiallari va mahsulotlari (bazal'tli, mineralli, toshdan olingan), bazal'tdan armatura, tola, to'r, fritta (kafellarga rang berishda ishlatiladigan xomashyo), dekorativ bo'yoqlar, mozaika (toshli, shishali va keramikali), sport va maishiy linoleum, shisha tolasi, shisha tolasidan to'r, gidroizolyatsiya materiallari, geotekstil, geomembrana, bentonit mat (to'shama), geoto'r, geopanjara va geokompozit kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Bugungi kunda rossiyalik hamkorlar bilan yo'l qoplamalarining foydalanish muddatini 2,5 baravar oshirish, tannarxini 35-40 foiz kamaytirish imkonini beradigan serobitum va serobeton ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun mahalliy korxonalar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda rossiyalik hamkorlar bilan yo'l qoplamalarining foydalanish muddatini 2,5 baravar oshirish, tannarxini 35-40 foiz kamaytirish imkonini beradigan serobitum va serobeton ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun mahalliy korxonalar tashkil etilmoqda. Buning uchun 445,0 ming AQSH dollari qiymatidagi loyiha amalga oshirilmoqda. Qurilish materiallari sanoatiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish natijasida qurilish, kapital ta'mirlash va dizaynerlik ishlarida yorug'lik o'tkazuvchan beton, yangi turdagi qurilish oynasi, xameleon g'isht, shishali cherepisa, o'zini o'zi tiklaydigan egiluvchan beton, manzaralari harakatlanuvchi pol qoplamalari, ko'pikli devor qoplamalari, kvarsvinilli pol qoplamasi, beton quyish uchun plastik qolip, guruch somonidan MDF plitalar, kompozit suyuq issiqlik izolyatsiyalash qoplamalaridan keng foydalanilmoqda.

Yangi turdagi qurilish materiallari



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://srcyrl.smartnewenergy.com/info/solar-panel-knowledge-31488829>.
2. Z.T.Yunusova "Issledovaniy struktur I fizicheskix svoystvveshestv metodami molekulyarnoy akustiki" mavzusida maqola chop etildi. 2023 yil 05.02 "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy uslubiy jurnalning № 26
3. Z.T.Yunusova " Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash muammolari "Fan ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari" ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE< EDUCATION AND TECHNOLOGY" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman 2022 yil 12 aprel, \
4. Z.T.Yunusova "Fizika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" O'zbekistonda uchinchi renessans va innovatsion jarayonlar Hayot nashri 2023 yil 26 aprel, Andijon
5. Rafailovna, RR (2022). "LAZER FIZIKASI" FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI , 2 (11), 170-171.

6.Takhirovna, Y. Z. (2024). EFFECT OF ELECTRIC CURRENT ON THE HUMAN BODY. *Science and innovation*, 3(A2), 183-186.

7. TAXIROVNA, Y. Z. (2024). Namlik va uning turlari. *Science Promotion*, 5(1), 374-377..

8.Taxirovna, Y. Z. (2023). FIZIKANI O ‘QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDANFOYDALANISH USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(22), 103-107.

9.Taxirovna, Y. Z. (2023). NOAN’ANAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANIB ELEKTR TA’MINOTIDAGI ISHONCHLILIKNI OSHIRISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 89-92.